

## SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA XUSUSIY SEKTOR FAOLIYATIGA INSONLARNING MUNOSABATI

X.U. Samatov

Ilmiy rahbar:

Mardihev Murodjon

Toshkent Axborot Texnologiyasi Universiteti

Samarqand filiali Kompyuter injiniring fakulteti

AT-servis 21-07-guruh talabasi

Telefon raqam: +998940060856.

*Elektron pochta manzili: mardihev.murodjon670@gmail.com*

*<https://doi.org/10.5281/zenodo.11317106>*

**Annotatsiya.** Bu maqola, sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektor faoliyatiga insonlarning munosabatini ta'kidlaydi. Maqola ommaviy xizmatlar va xususiy sektor faoliyatlarining sog'liqni saqlashga qanday ta'sir ko'rsatishi va insonlar uchun qanday muhim bo'lishi haqida ma'lumotlar taqdim etadi. Ushbu maqolada, ommaviy va xususiy sektorlar orasidagi munosabatlarni o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlar, statistika ma'lumotlar va soha mutaxassislarining fikrlari murojaat qilingan. Maqola, insonlarning sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish, ularning shaxsiy ehtiyojlariga qanday javob berish orqali yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish va sodiq hamkorlik orqali ko'rsatilayotgan qadamni ta'kidlaydi. Bu maqola, sog'liqni saqlash sohasidagi xususiy sektor faoliyatining, insonlarning hayoti va sog'liqini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Sog'liq, xususiy sektor, sog'liq, tibbiy, stomatologiya, laboratoriya tashxisi, terapiya, fizioterapiya, nevrologiya, muassasa.

## PEOPLE'S ATTITUDES TOWARDS PRIVATE SECTOR ACTIVITIES IN THE FIELD OF HEALTH CARE

**Abstract.** This article highlights the public response to private sector activities in health care. The article provides information on how public services and private sector activities affect health and how they matter to people. This article examines the relationship between the public and private sectors using scientific research, statistical data, and the opinions of industry experts. The article highlights the strides being made in increasing people's access to health services, providing high-quality services by responding to their individual needs, and committed partnerships. This article shows that the activities of the private sector in the field of health care are of great importance in ensuring the lives and health of people.

**Key words:** Health, private sector, health, medical, dentistry, laboratory diagnosis, therapy, physiotherapy, neurology, institution.

## ОТНОШЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧАСТНОГО СЕКТОРА В ОБЛАСТИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается реакция общества на деятельность частного сектора в сфере здравоохранения. В статье представлена информация о том, как государственные услуги и деятельность частного сектора влияют на здоровье и какое значение они имеют для людей. В данной статье рассматриваются взаимоотношения государственного и частного секторов с использованием научных

исследований, статистических данных и мнений экспертов отрасли. В статье освещаются успехи, достигнутые в расширении доступа людей к медицинским услугам, предоставлении высококачественных услуг путем реагирования на их индивидуальные потребности и преданном партнерстве. В данной статье показано, что деятельность частного сектора в сфере здравоохранения имеет большое значение в обеспечении жизни и здоровья людей.

**Ключевые слова:** Здравоохранение, частный сектор, здравоохранение, медицина, стоматология, лабораторная диагностика, терапия, физиотерапия, неврология, учреждение.

Insonlarning sog'liqni saqlash sohasida xususiy lashtirilgan sektor faoliyati juda muhimdir.

Bu soha, insonlar uchun sog'likni saqlash, davolanish bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanadi. Insonlarning sog'ligi, ularning faoliyati va umrini uzaytirishga qaratilgan tadbirlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari insonlarni sog'lomlashdirish, kasalliklardan himoya qilish va davolanishning muhim yo'llarini o'rganish va ulardagi yangi yo'llarni izlashga yo'l ochadi.

Yurtimizning barcha hududlarida xususiy tibbiyot muassasalari tarmog'i faoliyatini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan, ularning faoliyatini tartibga solingan holda insonlarga sifatlari tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda. Xususiy tibbiyot muassasalarining tashxis qo'yish va davolash bo'yicha zamonaviy yuqori texnologiyali usullarni keng qo'llagan holda, keng aholi qatlamlari, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan xizmatlar ko'rsatiladi.

Oxirgi yillarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida tibbiyot sohasining xususiy sektorini barqaror rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohaga mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimining davlat sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan keng turdag'i tibbiyot xizmatlarini sifat jihatidan yuksaltirish va yanada to'ldirishga xizmat qiladigan muhim tarkibiy qism sifatida qaralmoqda. Umuman olganda, mamlakatimizda tibbiyot sohasining xususiy sektori faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunida mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini tartibga solish va litsenziyalash tizimi faoliyat yuritmoqda. Ularga barcha turdag'i soliqlar va qator majburiy to'lovlar, shuningdek, chetdan olib kelinadigan yangi tibbiy asbob-uskunalar uchun bojxona to'lovlaridan ozod etish bo'yicha imtiyozlar berilayotir.

So'nggi 6 yilda mamlakatimizda xususiy tibbiyot muassasalari soni 2 barobar ko'payib, 3,5 mingtaga yetdi. Ularni yuqori texnologiyali tibbiyot texnikasi bilan jihozlash darajasi 3 barobar oshdi. Ayniqsa, stomatologiya, laboratoriya tashxisi, terapiya, fizioterapiya, nevrologiya va boshqa sohalarga ixtisoslashgan xususiy tibbiyot muassasalari rivojlangan. Shu bilan birga, davlatimiz rahbari sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan uchrashuvlarida sog'liqni saqlash tizimida xususiy sektorni rivojlantirishga hamon yetarlicha e'tibor qaratilmayotganini ta'kidladi.

Bu boradagi tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatiga oid qonunchilikda mavjud cheklar ular tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat turlarini

kengaytirish va sifatini yanada yaxshilashga, ayniqsa, tor ixtisoslikdagi tibbiyot sohalariga ilg‘or davolash usul va texnologiyalarini joriy qilishga to‘sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, xususiy tibbiyot subyektlarining qishloq joylarda rivojlantirish darajasi qoniqarsiz holatda, ularning uchdan bir qismidan ziyodi Toshkent shahri va viloyatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan qabul qilingan qarorga muvofiq, sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalish va vazifalari qatorida xususiy tibbiyot muassasalari tashxis qo‘yish va davolashning zamonaviy yuqori texnologiyali usullarini keng qo‘llagan holda sifatlari tibbiy xizmatlar ko‘rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ularga kredit ajratish va moliyaviy yordam ko‘rsatish, xususiy tibbiyot sohasiga xorijiy investitsiyalar va malakali mutaxassislarini jalb qilish, tibbiy xizmatlar eksportini kengaytirish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish bozori infratuzilmasini rivojlantirish belgilangan.

Insonlarga sifatlari tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun qarorlar yangilanmoqda, ayni paytgacha xususiy tibbiyot muassasalariga 177 turdagisi tibbiy xizmatlarning atigi 50 tasiga ruxsat etilgan bo‘lib, qolganlari taqiqlangan edi. Yangilangan qarorga binoan, endi ularga tibbiy xizmatlarning deyarli barcha turlarini ko‘rsatishga ruxsat berildi. Ruxsat etilgan tibbiy xizmat turlariga kardiojarrohlik, neyrojarrohlik, mikrojarrohlik, onkologiya, anesteziologiya va reanimatologiya, gelmintologiya, intervitsion kardiologiya, immunobiologik va immunoferment tashxis qo‘yish, qon-tomir, torakal va abdominal jarrohlik va tibbiyot sohasida talab yuqori bo‘lgan boshqa yo‘nalishlar kiritildi. Shuni qayd etish lozimki, agar avval qabul qilingan qonunchilik hujjalarda xususiy tibbiyot muassasalari shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari tasdiqlangan bo‘lsa, endi faqat davlat sog‘liqni saqlash muassasalari amalga oshirishi mumkin bo‘lgan va xususiy tibbiyot muassasalari uchun taqiqlangan ayrim cheklangan faoliyat turlari tasdiqlanmoqda.

Ushbu faoliyat turlari aholi hayoti, salomatligi va sanitariya-epidemiologik holatiga katta xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan, jumladan, o‘ta yuqumli, xavfli va karantin kasalliklarga tashxis qo‘yish va davolash, toksikologik, venerik va ruhiy xastaliklar, chaqaloqlar va 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar kasalliklari va patologiyasini davolash, tug‘ruqni qabul qilish va homiladorlikni to‘xtatish, organlarni ko‘chirish, qon donorligini tashkil etish va boshqa o‘ziga xos yo‘nalishlar bilan bog‘liqidir. Alovida ta‘kidlash lozimki, taqdim etilgan soliq imtiyozlari xususiy tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini sezilarli darajada mustahkamlash imkonini beradi.

Bo‘shagan mablag‘lar ularni zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash, ularga servis-texnik xizmat ko‘rsatish, tibbiyot maqsadlari uchun ehtiyyot qismlar, inventar va boshqa buyumlar xarid qilish, yangi bino va inshootlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilishga maqsadli yo‘naltiriladi.

Xususiy tibbiyot sektorga yaratib berilayotgan imkoniyatlar qishloq joylarda va chekka tumanlarda tibbiyot sohasida xususiy sektorni jadal rivojlantirish maqsadida qarorda qishloq joylarda tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida tashkil etiladigan yangi mikrofirmalar va kichik korxonalar davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 10 yil muddatga yagona soliq to‘lovidan ozod etilishi ko‘zda tutilgan. Dasturda xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va kengaytirish uchun ularni bino va xonalar bilan ta‘minlashga doir amaliy chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga foydalanimayotgan binolar, obyekt va xonalarni, ayniqsa, sog‘liqni saqlash tizimida tugatilayotgan muassasalarning davlat mulki bo‘lgan obyektlarini

aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatadigan tadbirkorlik subyektlariga "nol" qiymatida belgilangan tartibda bepul sotish, bunda mulkdorlar investitsiya kiritish va yangi ish o'rinnari yaratish bo'yicha majburiyatlarni zimmasiga olishini ta'minlash vazifasi topshirildi. Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik subyektlari, jumladan, xususiy tibbiyot muassasalariga davlat mulkini ijara olishning maksimal muddatini amaldagi normalarga muvofiq 5 yildan 10 yilgacha uzaytirish ko'zda tutilgan. Bunda sog'liqni saqlash muassasalarining davlat mulkidan foydalanish uchun ijara to'lovining eng kam stavkasini 20 foizga qisqartirish nazarda tutilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tibbiyotning xususiy sohasiga, ayniqsa, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarini jalb qilish va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma tibbiyot muassasalari tashkil etish orqali ilg'or xalqaro tajribani joriy etishni kengaytirishga doir chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Xususiy tibbiyot muassasalarida ishlashga jalb etiladigan xorijlik shifokorlar va zamona viy tibbiyot asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatadigan texnik mutaxassislar tuzilgan mehnat shartnomalari doirasida olinadigan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslar daromad solig'i hamda yagona ijtimoiy to'lovlardan ozod etilishi belgilangan.

### **Xulosa**

Insonlarning sog'liqni saqlash sohasidagi xususiy sektor faoliyatiga munosabati insonlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi va ularning sog'ligini muhofaza qilishga yordam beradi. Bu yo'l orqali odamlar sog'likli va mukammal hayot yitishtirishi mumkin. Insonlarning sog'likni saqlash sohasida xususiylashtirilgan sektor faoliyatiga munosabat o'rnatish juda muhimdir. Bu soha insonlar uchun yaxshi hayot sharoitini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Sog'lom odam - sog'lom jamiyatning asosiy temeli bo'ladi va bu maqsadga erishuvchi harakatlarga e'tibor berilishi kerak.

### **REFERENCES**

1. <https://lex.uz/ru/docs/-3150309#-3150317>
2. <https://president.uz/oz/lists/view/371>